

FARG‘ONA TONGI

2024-yil 24-sentyabr, seshanba 17-18 son (1058)

(Gazeta 1995-yildan chiqa boshlagan)



Farg‘ona shahar hokimligining ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-ma‘rifiy gazetasi

O‘QITUVCHILAR VA ZIYOLILAR — UCHINCHI RENESSANSNING TAYANCH USTUNLARI

O‘ZEKISTON — OCHIQ VA ADOLATLI JAMIYAT



Davlat rahbari bugun Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi jadal amalga oshirilayotganini ta’kidladi. Uning so‘zlariga ko‘ra, Yangi O‘zbekiston:

- har bir fuqaroning hayotini yanada yaxshilash maqsadida davlat xizmatlaridan foydalanish uchun keng imkoniyatlar beradigan;
- odamlar o‘z muammolari haqida ochiq gapirishi va ularning yechimi uchun birgalikda harakat qilishlariga barcha sharoitlar mavjud bo‘lgan;
- hamma uchun adolatni so‘zsiz ta‘minlash imkoniyatini beradigan hamda fuqarolari ijtimoiy mavqedan qat‘i nazar, qonun oldida teng bo‘lgan;
- tadbirkorlikning rivojlanishi uchun zarur sharoitlar yaratilgan davlatdir.

Albatta, bunday keng ko‘lamli vazifalarni amalga oshirishda oldimizda turli qiyinchilik va

muammolar paydo bo‘lishi tabiiy hol. Lekin o‘z tarixida qancha-qancha sinov va mashaqqatlarni boshidan kechirgan mard va matonatli xalqimiz har qanday qiyinchilikni yengib o‘tishga qodir.

Kuni kecha yurtimiz bo‘ylab vatanimizning 33 yillik Mustaqillik shodiyonasi nishonlandi. Uning shukuhi hamon davom etmoqda. Har bir fuqaroning quyoshdek porlab turgan yuzi va yonib turgan ko‘zi, faxr iftixorga to‘lgan qalbining ifodasidir. Shu yillar mobaynida yurtimiz har sohada ildamlab o‘tib ravnaq topib bordi. Ayniqsa, sport va unda aynan imkoniyati cheklangan shaxslarning jonbozlik ko‘rsatgani qalblarni zavqu shavqqa to‘ldirdi. Davlatimiz rahbari tomonidan yaratilgan shart-sharoitlar qulayliklar insonni labbay deb javob berishga undaydi. Kechagina nihoyasigayetgan Parij shahri mezbolik qilgan paralimpiadada sobiq talabamiz Aqidaxon Axtamova paralimpiya o‘yinlarida kuchli beshlikdan joy olganini eshitib juda quvondik va faxrlandik. U keyingi olimpiadadagi g‘oliblik uchun ilk qadamini tashladi desak mubolag‘a bo‘lmas.

Para pauerlifting bo‘yicha ayollar o‘rtasida -50 kg vazn toifasida bahs olib borgan Aqidaxon Axtamova 112 kg natija qayd etib, yakunda 5-o‘rinni egalladi. Bu Aqidaxon Axtamovaning faoliyatidagi birinchi Paralimpiya o‘yinlari hisoblanadi. Sportga kirib borganiga atigi 2 yil bo‘lgan bu sportchi qizimiz 4 ta davlatda bayrog‘imizni baland ko‘tarib keldi. Paralimpiyada ilk debyut chiqishib o‘lgan Aqidaxon keyingi musobaqalarda albatta birinchilardan bo‘lishiga ishonamiz.

Zarnigor A‘ZAMOVA,
Farg‘ona davlat universiteti
Tarix fakulteti ijtimoiy ish kafedrasini
o‘qituvchisi.

PEDOGOG XODIMLARINING HUQUQLARI TIKLANDI

Farg‘ona shahar adliya bo‘limi tomonidan Farg‘ona shahar Maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limiga qarashli ixtisoslashtirilgan umumta‘lim maktablarda ishlovchi pedogog-xodimlar Shadjalilov Jaxongir Baxodirovich, Atadjanov Mansurbek Mamirdjanovich, Ismailova Karina Shani-Shavkatovna, Baxtioxina Firuza Maratovna, Jakbarova Zuxra Imyaminovna, Maxmudova Azizaxon Mannonjonovna, Muhitdinov Rustamjon Baxodir o‘g‘li, Otanazarova Nargizaxon Uktamovna, Saydaliyeva Adolat Rustamovna, Umrzakov Saidaloxon Murodxon o‘g‘lilari joyidan ish haqiga ustama to‘lovlari to‘lanmayotganligidan norozi bo‘lib bo‘lib, ustama to‘lovlarini undirib berishda amaliy yordam so‘rab murojaati o‘rganib chiqildi.

O‘rganish natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 07.08.2008 yildagi «Ayrim fanlar chuqur o‘rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan umumta‘lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida»gi 173-sonli Qarorga asosan ayrim fanlar chuqur o‘rganiladigan ixtisoslashtirilgan maktablarda

o‘quv jarayoni bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan direktorlar, ularning o‘rinbosarlari va psixologlarga 20 foiz miqdorda ustama to‘lovlari to‘lanishi nazarda tutilgan bo‘lsada Farg‘ona shahar Maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limi tomonidan direktor o‘rinbosarlariga mazkur ustama to‘lovlari to‘lanishi asossiz to‘xtatib qo‘yilganligi xodimlarga shu kunga qadar ustamalar to‘lab berish choralarini ko‘rilmaganligi ma‘lum bo‘ldi.

Shunga ko‘ra Fuqarolik ishlari bo‘yicha Farg‘ona tumanlararo sudiga qaroriga zid ravishda to‘lanmay kelayotgan ustama to‘lovlarini 2024-yil 1-fevral kundan to‘liq hisob-kitob qilish hamda to‘lab berish majburiyatini yuklash yuzasidan hal qiluv qarori chiqarishni so‘rab da‘vo ariza kiritildi.

2024-yilning 12-iyun kuni mazkur da‘vo to‘liq qanoatlantirilib, Farg‘ona shahar adliya bo‘limining aralashuvi bilan pedogog xodimlarning huquqlari tiklandi.

Murodjon QODIRALIYEV
Farg‘ona shahar adliya bo‘limi boshlig‘i.

YANGI DAVR TA‘LIM STRATEGIYASI VA SOHADAGI ISLOHOTLAR

“Bir bo‘lsak – yagona xalqimiz, birlashsak – Vatanimiz!” shiori ostida o‘tkazilishi rejalashtirilayotgan bu yilgi mustaqillik bayrami yurtimizning barcha aholisi tomonidan o‘zgacha shukuh bilan kutilmoqda. Vatanimiz mustaqilligining 33 yilligini munosib nishonlash, uni ko‘tarinki ruhda o‘tkazish to‘g‘risida mamlakatimiz Prezidenti tomonidan qaror qabul qilindi. O‘tgan qisqa vaqt davomida mamlakatimiz iqtisodiy o‘rinishga erishish, kuchli milliy sanoatni yaratish va hayotning barcha sohalarini modernizatsiya qilishgacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tdi. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston turli sohalarda katta yutuqlarga erishdi. Jumladan, ta‘lim sohasidagi islohotlar va yutuqlar shular jumlasidandir. Ta‘limga berilayotgan alohida e‘tibor “Navqiron avlodga Yangi O‘zbekistonning kelajagi sifatida alohida e‘tibor qaratilayotgani, yoshlar bilan ishlash bo‘yicha noyob tizim yaratilishi natijasida ularni kasb-hunarlariga o‘qitish, bandligini ta‘minlash, bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yurtimizda shakllangan samarali va ta‘sirchan tizim”da yaqqol ko‘rinadi.

Sohada islohotlarni izchil davom ettirish maqsadida 2026-yilga qadar Taraqqiyot strategiyasi doirasida maktabgacha ta‘limda qamrov darajasini 80 foizga yetkazish, 7 mingdan ziyod yangi nodavlat MTTlarni tashkil etish, xalq ta‘limi tizimida qo‘shimcha 1,2 million o‘quvchi o‘rnini yaratish, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatining boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun bepul ovqatlanish bo‘yicha yo‘lga qo‘yilgan ijobiy amaliyotni qolgan barcha viloyatlar va Toshkent shahri maktablarida ham joriy etish ko‘zda tutildi.

Konstitutsiyaga o‘qituvchining jamiyatdagi maqomiga bag‘ishlangan alohida modda kiritildi. O‘zbekistonda o‘qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog‘lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma‘naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e‘tirof etilishi mustahkamlanmoqda, davlatning o‘qituvchilar sha‘ni va qadr-qimmatini himoya qilishi, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘rinishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishi nazarda tutilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan beri ta‘lim sohasida sezilarli o‘zgarishlar amalga oshirilmog‘da. Ta‘limdagi islohotlar mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishida muhim rol o‘ynamoqda. Bugungi kunda ta‘lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar yosh avlodni zamonaviy bilim va ko‘nikmalar bilan ta‘minlash, ularning xalqaro



maydonda raqobatbardoshligini oshirish maqsadida amalga oshirilmog‘da. Yurtimizda amalga oshirilgan ta‘limdagi islohotlarda ta‘lim sifatini yaxshilash, innovatsion ta‘lim texnologiyalaridan foydalanish, ilmiy tadqiqot ishlarini qo‘llab quvvatlash, ta‘lim va ishlab chiqarish hamkorligini kuchaytirish, shaffof qabul qoida va kriteriyalari bilan bog‘liq masalalar o‘z samarasini bermog‘da.

Mustaqil O‘zbekistonda ta‘lim islohotlarining kelajakdagi maqsadi – yosh avlodni global muammolarni hal qilishga tayyorlash, innovatsion fikrlash tarzini rivojlantirish va xalqaro bilim standartlariga mos keluvchi tizim yaratishdir. Bu islohotlar davomida har bir ta‘lim oluvchi va o‘qituvchining potentsiali to‘liq amalga oshirilishi, ta‘limning sifatini yanada oshirish va mamlakatning xalqaro maydonda raqobatbardoshligini ta‘minlash ko‘zda tutilmoqda.

O‘zbekistonda ta‘lim tizimidagi islohotlar mamlakatning kelajakdagi rivojlanishida muhim omil bo‘lib xizmat qilishi shubhasiz. Yosh avlodning bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlash, ularning dunyoqarashini kengaytirish, mamlakatni global maydonda tanitishda yangi davr ta‘lim strategiyasi muhim omil bo‘ladi.

Shodiya G‘ANIYeva,
Farg‘ona davlat universiteti,
boshlang‘ich ta‘lim uslubiyoti kafedrasini
dotsenti, filologiya fanlari doktori (DSc)

КОРРУПЦИЯСИЗ ТАРАҚҚИЁТ САРИ

“Коррупцияга қарши бутун жамоатчилик билан курашишимиз зарур”

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат МИРЗИЁЕВ.

Бугун дунё ҳар жабҳада шиддат билан ривожланиб бормоқда; маънавият, илм-у фан, сиёсат, иқтисод, спорт... ва яна қанчаларини айтишимиз мумкин. Дунё мамлакатларининг ақлини таниган сиёсатчилари ривожланишининг ҳар қандай турига чоҳ қазувчи иллатлар билан беаёв курашмоқда. Жамиятнинг илдам ривожланишига тўсқинлик қилувчи энг катта “динозаврлар”дан бири, бу - коррупциядир! Айрим давлатлар, масалан, Хитойда коррупцияга қарши, ҳатто ўлим жазоси ҳам қўлланилади. Бундан кўринмоқдаки, коррупция қозоғга ўралган энг жирканч ва қабих жиноятлардандир.

Икки-учта тилни мукамал билиб, олий маълумотли бўлган ҳолда жамиятда ўз ўрнини топа олмай, бугун чет давлатларда тақсичилик қилаётган, инглиз тили имтиҳонидан муваффақиятли ўтиб, ўқиш учун Корея ярим оролига бориб, ўша ерда денгиз паромларида мардикорлик қилаётганлар ҳам айнан юртимизда коррупциядан жабр тортган дўстларимиз бўлади!

Давлат ташкилотлари ва корхоналарнинг таркибий қисмларига ўрнашиб олиб, “етакчилик арқони”ни маҳкам ушлаб олган, аммо қилаётган ишининг натижаси кўринмаётган, сўхбатлашсангиз на дунёқарашини, на билим савиясини етарли бўлмаган янги “тўрачалар” ҳам ана шундай “жигарчиликка” бурканган коррупциянинг ҳаққоний кўриниши ҳисобланади.

Бунга ўхшаган мисолларни жуда кўп гапиришимиз мумкин. Шахсан муҳтарам Президентимиз ўзлари камчилик ва хатоларимизни қаттиқ танқид қилган ҳолда, бунга қарши чора-тадбирлар қўламини янада кучайтирмоқдалар. Кўчли, мард сиёсатчи ўлароқ майдонга келиб, коррупцияга қарши курашиш соҳасида муҳим ислохотларни амалга оширишни бошлаб юбордилар.

Бугун ўз лавозимининг “имкониятлари”дан “моҳирона” фойдаланиб “энг қиммат автомашина” олишни, ҳашаматли ўйлар қуришни “ният қилганлар” эмас..., маошининг кўтарилишига ишониб, айни пайтдагисига қаноат қилиб ишлайдиган... Ватанга ҳақиқий, садоқатли, виждонли, миллатга Президентнинг олдида елкама-елка турадиган ҳамфикр ва ҳаммаслак кадрлар керак!

Бунинг учун эса коррупция номили баало азимнинг устидан ғалаба қозонишимиз шарт.

Бу иллатга қарши курашишга барча давлат органлари, сиёсий партиялар, жамоат ташкилотлари, оммавий ахборот воситалари, умуман, ҳар бир фуқаро сафарбар этилиши зарур. Коррупция ўта оғир жиноят экани ва унга нисбатан мурасосиз бўлиш ғоясини фарзандларимизга ёшлик давридан бошлаб синдиришимиз, уларга фақат ҳалол меҳнат ва тадбиркорлик орқали даромад топишни ўргатишимиз лозим.

Хозирги кунда Молия вазирлиги давлат идоралари бюджетдан ташқари жамғармалари ва банк муассасаларида-

аҳолининг ҳуқуқий онги ва маданиятини оширишга, жамиятда коррупцияга мурасосиз муносабатни шакллантиришга йўналтирилган тизимли чоралар кўриб келинмоқда.

Аҳолига кредитлар ажратилишида коррупцияга энг кўп мойил бўлган оилавий тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш учун ажратилаётган имтиёзли кредитлар берилиши тўлиқ рақамлаштирилиб, ягона электрон платформа (oilakredit.uz) яратилган ҳолда инсон омилини кескин қисқартиришга эришилди.

Банк хизматларини кўрсатишда инсон омилини реал вақт режимида олинган рақамли идентификация қилиш механизмидан (Face ID) фойдаланиш имконияти яратилиб, мижозларини масофадан туриб идентификация қилиш тизимини жорий қилиш учун ҳуқуқий асос яратилди.

Яна бир янги жорий этилган жараёнлардан бири – Марказий банк тизимида кадрларни танлашда эски усуллардан воз кечиб, уларнинг интеллектуал салоҳиятини, маънавий фазилатларини баҳолайдиган очиқ ва ошқора танлов тизими жорий этилди. Шунингдек, коррупциянинг олдини олиш бўйича давлат хизматчиларини мунтазам ўқитиш ва билимини баҳолаб бориш тизими йўлга қўйилди.

Булардан асосий мақсад давлат томонидан аҳолига кўрсатиладиган хизматлари турларини кенгайтириш, хизматлардан фойдаланувчилар қўламини ошириш, хизматларда шафқатли таъминлаш, кўрсатиладиган хизматларда инсон омилини чеклаш, рақамли технологиялардан фойдаланган ҳолда барча соҳаларда коррупцияни олдини олиш саналади.

Шунингдек, Коррупцияга қарши комплаенс-назорат фаолиятини амалга ошириш доирасида Марказий банкнинг коррупцияга қарши курашишга оид ички норматив-ҳуқуқий ҳужжатлари такомиллаштирилди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Коррупцияга қарши курашиш ишларининг самарадорлигини рейтинг баҳолаш тизимини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори асосида коррупцияга қарши курашиш ишларининг самарадорлигини рейтинг баҳолашнинг 5 та йўналишида ва 29 та индикаторлар бўйича маълумотлар ҳамда амалга оширилган ишлар E-Anticor.uz электрон платформасига жойлаштириб борилмоқда.

Юқоридаги мақсадларни амалга оширишда Марказий банкнинг Фарғона вилояти бош бошқармаси ҳамда вилоятимиз ҳудудида жойлашган тижорат банк филиаллари томонидан аҳоли ва банк мижозларига хизмат кўрсатишда манфаатлар тўқнашуви ҳамда коррупцияни олдини олиш борасида бир қатор ишлар амалга оширилмоқда.

А.АБДУРАХИМОВ,
Марказий банкнинг Фарғона вилояти бош бошқармаси бош юрисконсулти.
Қ. СУЛТОНОВ,
Марказий банкнинг Фарғона вилояти бош бошқармаси бош аудитори.



ROSHIDONNING OLTIN ME'ROSI

Ergash ota Sanginov nomidagi xalq kutubxonasi 1960 yillarda tashkil etilgan bo'lib, tuman aholisiga kutubxona xizmatini ko'rsatib kelmoqda. Kutubxona kitob jamg'armasi 12 mingdan ortiq bo'lib, jamg'arma o'zbek adabiyoti, tojik adabiyoti, rus adabiyoti, jahon adabiyoti, bolalar adabiyotlari bilan boyitilgan. 3 mingdan ziyod adabiyotlar arab, fors, tojik tillaridan iborat. Kitob jamg'armasida Yusuf Xoj Xojibning “Qutadg'u bilig”, Mahmud Qoshqariyning “Devoni lug'ati turk”, Burhoniddin ar-Roshidoniyning “Hidoyai sharif”, “Injil”, “Tavrot”, “Qur'oni karim”ning rus, turk, ingliz, o'zbek tilidagi nusxalari mavjud. Bundan tashqari kutubxonada 1941 yildan to hozirgi kungacha chop etilgan gazetalar to'plamlari saqlanib kelmoqda. Kitobxonalar “Xalq irodasi”, “Yangi O'zbekiston”, “Hordiq”, “7x7”, “Mahalla”, “Darakchi”, “Hidoyat” kabi gazeta jurnallarning yangi sonlari bilan muntazam tanishib boradilar. 1960 yilda tashkil etilgan kitob jamg'armasini to'ldirishda Ergash ota o'z shaxsiy mablag'idan foydalangan. Adabiyotlarni Moskvadan turli joylarga sayyohatga borganlarida yoqqan kitoblarini sotib olib to'plaganlar. Otaning ustozlari Ahmadjon

Sohib Hindistonda yashaganlar Rishtonga kuchib kelganlarida kutubxonaga 100 dan ortiq adabiyotni sovg'a qilganlar. 1984 yilda Ergash ota vafot etgach ularning o'g'illari Xusanboy Ergashev otalarining ishlarini davom ettirmoqdalar. Xusanboy ota birinchi navbatda kitob jamg'armasini yangi adabiyotlar bilan boyitishga kitobxonlarga kutubxonadan foydalanishlari uchun sharoitlar yaratishga harakat qildi. Kutubxonaga yangi bino qurishni boshladi va 2023 yilda bino qurilib shu yilning iyun oyida kutubxonaning ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Ochilish marosimida viloyat hokimi Hayrulla Bozorov, tuman hokimi, Ma'naviyat va ma'rifat markazi xodimlari, ichki ishlar xodimlari, tuman Axborot kutubxonasi markazi xodimlari va turli xil tashkilot vakillari ishtirok etdilar. Kutubxonaga kirsangiz muzeyga kirib qolganday bo'lasiz. Kutubxona bezatilishida 100-200 yillar oldin mohir ustalar tomonidan yasalgan buyumlar bilan bezatilgan. Kutubxonaga Ergash ota Sanginov nomi berildi.

M.MAMADALIYEVA,
Rishton tumani axborot-kutubxona markazi direktori.

КИМЛАР ОТА-ОНАЛИК ХУҚУҚИДАН МАХРУМ ҚИЛИНАДИ?

Ўзбекистон Республикаси Оила қонунчилигида вояга етмаган болаларнинг бир қатор шахсий номулк хуқуқлари кўрсатилган, яъни ҳар бир бола оилада яшаш ва тарбияланиш, ўз ота-онасини билиш, уларнинг ғамхўрлигидан фойдаланиш, улар билан бирга яшаш ҳуқуқига эга. Бола ўз ота-онаси томонидан тарбияланиши, ўз манъфаатлари таъминланиши, ҳар тарафлама камол топиши инсоний қадр-қимматлари ҳурмат қилиниши ҳуқуқига эга. Шунингдек, ота-она ўз болаларига нисбатан тенг ҳуқуқ ва мажбуриятларга эгадирлар. Ота-онанинг бола олдидаги тенг ҳуқуқликлари унга ғамхўрлик қилиш, таълим тарбия бериш, уни парвариш қилишдан иборат.

Шундай экан, ҳар бир ота-она ўз фарзандларининг таълим-тарбиясида, моддий таъминотида ва ўсиб улғайишига маъсул ҳисобланади. Лекин жамиятимизда шундай ота-оналар борки улар ўз фарзандларига бефарқ ва уларни қаровсиз ҳолатда ташлаб қўяди. Амалдаги қонунчилигимизга кўра бундай ота-оналарга нисбатан таъсир чораларидан бири уларни ота-оналиги ҳуқуқидан маҳрум қилиш ҳисобланади. Биз амалиётда кўпроқ оталик ҳуқуқидан маҳрум қилиш ҳолатларини учратишимиз мумкин.

Ўзбекистон Республикасининг Оила кодексининг 77-моддасига асосан қуйидагилар ота-оналик ҳуқуқидан маҳрум қилиниши мумкин:

ота-оналик мажбуриятларини бажаришдан бош тортса, шу жумладан алимент тўлашдан бўйин товласа;
узрсиз сабабларга кўра ўз боласини туғуруқхона ёки бошқа даволаш муассасасидан, тарбия, аҳолини ижтимоий ҳимоялаш муассасаси ва шунга ўхшаш бошқа муассасалардан олишдан бош тортса;
ота-оналик ҳуқуқини суиистеъмол қилса, болаларга нисбатан шафқатсиз му-

омалада бўлса, жумладан жисмоний куч ишлатса ёки рўхий таъсир кўрсатса;
муттасил ичкиликбозлик ёки гиёвандликка мубтало бўлган бўлса;

ўз болаларининг ҳаёти ёки соғлиғига ёхуд эри (хотини)нинг ҳаёти ёки соғлиғига қарши қасддан жиноят содир қилган бўлса.

Ота-оналик ҳуқуқидан маҳрум қилиш суд тартибидан амалга оширилади.

Ота-оналик ҳуқуқидан маҳрум қилинган ота-она қайси болага нисбатан ота-оналик ҳуқуқидан маҳрум қилинган бўлса, шу болага нисбатан бўлган қариндошлик фактига асосланган барча ҳуқуқлардан, шу жумладан ундан таъминот олиш, шунингдек болали фуқаролар учун қонунчиликда белгиланган имтиёзлар ва нафақалар олиш ҳуқуқларидан маҳрум бўлади. Ота-оналик ҳуқуқидан маҳрум қилиниши ота-онани ўз боласига таъминот бериш мажбуриятидан озод қилмайди. Судлар амалиётда кўплаб фуқаролар томонидан шу ҳолат бўйича тушунмовчилик юзага келганини учратиш мумкин, яъни ота-оналик ҳуқуқидан маҳрум бўлса алимент мажбурияти ҳам тугайди деб ўйлайди. Фарзанди учун алимент тўлаш бу ҳуқуқ эмас аксинча мажбуриятдир. Хулоса ўрнида шунини айтиб ўтиш лозимки, ота-оналар болаларини тарбиялашдаги ўз вазифаларини ўташдан бош тортсалар, болаларига шафқатсизлик билан муомалада бўлсалар, ғайри ахлоқий ҳаёт кечириб, болаларига салбий таъсир кўрсатсалар, ота-оналик ҳуқуқидан маҳрум қилинишлари мумкин.


Ш.САФОХОНОВ,
Фуқаролик ишлари бўйича Фарғона туманлараро судининг судьяси.
М.ҚОДИРАЛИЕВ,
Фарғона шаҳар адлия бўлими бошлиғи.

BARCHA KORXONA, TASHKILOTLAR RAHBARLARI VA BOSH HISOBCHILARI DIQQATIGA!

Farg'ona shahar statistika bo'limi, 4 fx shakli choraklik "Fermer xo'jaligi faoliyati to'g'risida hisobot" ini hisobot davridan keyingi oyning 5-sanasi bilan kechiktirmay, 4 dx shakli choraklik "Dehqon va tomorqa xo'jaligi faoliyati to'g'risida hisobot" ini hisobot davridan keyingi oyning 5-sanasi bilan kechiktirmay, 4 avto shakli choraklik "Avtomobil transporti ishi to'g'risida hisobot" ini hisobot davridan keyingi oyning 5-sanasi bilan kechiktirmay, 4 mehnat shakli choraklik "Mehnat hisoboti" ni hisobot davridan keyingi oyning 6-sanasi bilan kechiktirmay, 4 invest (asosiy) shakli choraklik "Investitsiya faoliyati, bino va inshootlarni foydalanishga topshirish to'g'risida hisoboti" ni hisobot davridan keyingi oyning 6-sanasi bilan kechiktirmay, 4 invest (xorijiy) shakli choraklik "O'zbekiston Respublikasiga chet eldan kiritilgan investitsiyalar va O'zbekiston Respublikasidan chet elga yo'naltirilgan investitsiyalar to'g'risida hisoboti" ni hisobot davridan keyingi oyning 29-sanasi bilan kechiktirmay xatolarsiz, qiyosiyli va haqqoniyligini ta'minlangan holda internet tarmog'idan foydalanib, elektron ko'rinishda avtomatlashtirilgan estat 4.0 orqali taqdim etishingizni eslatib o'tadi.

Murojaat uchun telefon: (73)-244-67-22, (73)-244-67-21
Farg'ona shahar statistika bo'limi ma'muriyati.

ТАЗЙИҚ ОСТИДАГИ АЁЛЛАР-ДАВЛАТ ХИМОЯСИДА



Ўзбекистон Республикасида аёлларга нисбатан “Тазйиқ ва зўравонликка қарши кураш” учун муҳим қадамлар қўйилмоқда. Ушбу мақолада биз мамлакатимизда тазйиқ ва зўравонликка учраган аёлларимизга ва уларнинг вояга йетмаган фарзандларига кўрсатилаётган комплекс хизматлар ҳақида сўз юритар эканмиз, мақсадимиз оғир вазиятга тушиб қолган аёлларга ёрдам бериш ва уларнинг ҳаётда ўз ўрнини топишга кўмаклашишдан иборатдир.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ 175-сонли қарорига биноан тазйиқ ва зўравонликка учраган аёлларга кўмаклашиш учун бир қатор комплекс хизматлар йўлга қўйилган. Ушбу хизматлар аёлларга фақатгина психологик ва ижтимоий ёрдам кўрсатиш билан чекланиб қолмай, балки уларнинг вояга йетмаган фарзандларини ҳам қамраб олади. Жумладан

-Аёллар ва уларнинг вояга йетмаган фарзандларини руҳий ва психологик қўллаб-қувватлаш, бу орқали уларнинг руҳий саломатлигини тиклашга кўмаклашиш.

-Аёлларга ижтимоий хизматлар кўрсатилибгина қолмай, уларнинг жамиятга қайта интеграция қилиш чораларини кўриш,

-Зўравонлик қурбонларига ҳуқуқий ёрдам берилиб, уларнинг ҳуқуқларини

химоя қилиш.

Бунга бевосита қўшимча қиладиган бўлса, Ўзбекистон Республикаси Хузуридаги Ижтимоий Химоя Миллий Агентлиги директорининг 2024-йил 29-мартдаги 78-сонли буйруғига асосан оғир ижтимоий вазиятга тушиб қолган аёлларни қўллаб-қувватлаш ва уларнинг ҳаётда ўз ўрнинларини топишларига ёрдам бериш учун махсус дастурлар амалга оширилмоқда. Жумладан, аёлларга ижтимоий хизматлар орқали ёрдам кўрсатилади, касб-хунарга ўргатиш ва ишга жойлаштириш имкониятлари яратилади.

Зўравонликка учраган аёллар ҳамда уларнинг фарзандлари учун махсус реабилитация марказлари ташкил этилиб, уларга зарур ёрдам кўрсатилади.

Ўзбекистон Республикаси ҳукумати томонидан амалга оширилаётган бу чора-тадбирлар аёлларимизга муносиб ҳаёт шaroитларини яратиш, аёлларга комплекс хизмат кўрсатиш, нафақат уларнинг, балки жамиятимизнинг барқарор ривожланиши учун ҳам муҳим аҳамиятга эга. Бу ёндашув орқали тазйиқ ва зўравонликнинг олдини олиш, аёлларнинг ҳуқуқларини химоя қилиш ва уларнинг ҳаёт сифатини яхшилашга эришилади.

Мамажонова Озодахон
Тошлоқ тумани Инсон ижтимоий хизматлар маркази ижтимоий ходими.

ТАБИЙ ВА СОФ ШАРБАТЛАР

Маълумки, соф маҳсулотдан тайёрланган шарбатлар организмнинг яхши ишлаши учун зарур бўлган энергия, витамин ва минералларнинг манбайи ҳисобланади. Аммо шарбатларнинг инсон организмга акс таъсир кўрсатмаслиги учун ишлаб чиқарувчи корхоналарнинг техник базаси тўғри йўлга қўйилган бўлиши лозим. Мамлакатимизда инсоннинг ҳаёти ва соғлиғига зарар етказилишидан сақлаш мақсадида мева, сабзавотлар ва резавор мевалардан тайёрланган шарбат маҳсулотларининг хавфсизлиги тўғрисидаги умумий техник регламентни тасдиқланган. Техник регламент инсоннинг ҳаёти ва соғлиғига зарар етказилишидан сақлаш мақсадида мева, сабзавотлар ва резавор мевалардан тайёрланган шарбат маҳсулотларининг хавфсизлигига бўлган талабларни белгилайди. Шарбат маҳсулоти техник регламент талабларига жавоб берган тақдирда Ўзбекистон Республикаси бозорига муомалага киритилади. Шарбат маҳсулотининг ҳар бир туркуми муомалага киритилганида унга сифат тўғрисидаги ҳужжат илова қилинади. Жумладан, шарбат маҳсулотининг номи, ишлаб чиқарувчи ёки сотувчининг номи, уларнинг жойлашган жойи, шарбат маҳсулотига талабларни белгилувчи техник регламентнинг белгиси, шарбат маҳсулотининг техник регламент талабларига мувофиқлигини тасдиқловчи синовларнинг норматив кўрсаткичлари ва ҳақиқий натижалари, шарбат маҳсулотларида компонентлар ва озиқ-овқат қўшимчаларининг мавжудлиги тўғрисидаги маълумотлар, ишлаб чиқариш санаси, шарбат маҳсулотларининг яроқлилик муддати ҳужжатда акс этиши керак. Шунингдек, сақлаш шaroитлари, техник регламент талабларига жавоб берадиган ёки яроқлилик муддати тугаган шарбат маҳсулотларини утилизация қилиш ёки уларни йўқ қилиш шартлари, сертификатлаштириш тўғрисидаги маълумотлар, сифатни тасдиқловчи ҳужжатнинг берилган санаси ва рақами ҳамда сифатни тасдиқловчи ҳужжатни расмийлаштирган шахснинг имзоси ҳам иноватга олинади. Болалар озуқаси учун шарбат маҳсулотини ишлаб чиқаришда таркибда генетик жиҳатидан модификация қилинган организмлар (ГМО) бўлган мевалар ва сабзавотлар, концентрация қилинган диффузион шарбат, шунингдек, таркибда ГМО бўлган қўшимча компонентлар ва озуқавий қўшимчалар, ширин қилувчи моддалар (қандли диабет билан касалланган болалар учун мўлжалланган махсус шарбат маҳсулотлари бундан мустасно), хушбўй ҳид берувчилар (табиий хушбўй ҳид берувчилардан ташқари) ва бошқа компонентлар ва озуқавий қўшимчалар қўшишга йўл қўйилмайди.

Шарбат маҳсулотларини йўқ қилиш усуллари ва шартлари унинг эгаси томонидан тегишли давлат органи билан келишилади. Техник регламент талабларига риоя этилиши устидан давлат назорати Ўзбекистон Республикаси Санитария-эпидемиологик оқойишталиги ва жамоат саломатлиги хизмати, Ўзбекистон техник жиҳатдан тартибга солиш агентлиги, шунингдек, ўз ваколатлари доирасида бошқа ваколатли давлат органлари томонидан таъминланади. Техник регламент талаблари бузилишида айбдор бўлган шахслар Ўзбекистон Республикаси қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартибда жавоб берадилар.

Нигора АБДУЛЛАЕВА,
“UzTest” ДМ Фарғона филиали
Сертификатлаштириш
бўлими бошлиғи

Нигора АБДУЛЛАЕВА,
“UzTest” ДМ Фарғона филиали
Сертификатлаштириш
бўлими бошлиғи

ТЕЖАМКОР ЁНДИРГИЧЛАР ЎРНАТИНГ!

Замонавий ёндиргичларни ўрнатилишини энг асосий афзалликларидан бири газ билан боғлиқ кўнгилсиз ҳодисаларни ва ис газ билан заҳарланиш каби бахтсиз ҳодисаларни олди олинади. Чунки ушбу замонавий ёндиргичларда газни автоматик тарзда беркитиш (клапан) функцияси мавжудлиги сабабли, истеъмолчи табиий газдан эҳтиётсизлик билан фойдаланган тақдирда ҳамда йилнинг мавсумдан мавсумга ўтиш давларида газ босимидаги нотекисликлар юзага келган пайтларда газ таъминотини тўхтатиши ҳисобига келиб чиқиши мумкин бўлган хавфнинг олди олинади.

Шу билан бирга, табиий газни тўлиқ ва сифатли ёндириши ҳисобига ис газдан заҳарланиш ҳолатларини камайтиришга эришилади.

Газ билан боғлиқ бахтсиз ҳодисаларни олдини олиш мақсадида, маиший истеъмолчиларнинг мажбуриятлари қуйидагилардан иборат:

янги турар жойларга кўчиб ўтилганда ҳамда мавжуд уй-жой фондини газлаштириш давомида газ хўжалигида хавфсизлик қоидалари бўйича газ таъминоти ташкилоти ходими томонидан берилган зарур кўрсатмалар билан танишиш;

ўз тасарруфидаги газ тармоқлари, газдан фойдаланиш ускуналари, шунингдек, фойдаланилаётган ертўлалар, техник йўлақлар ва бошқаларда электр ёритиш ва шамоллатиш тизимининг доимий ишлашини таъминлаш, биноларнинг ертўлаларидаги ер ости газ тармоқларини бинога кирган қисмининг мустақамлиги ва зичлигини таъминлаш. Бунда:

кўп квартиралар ва турар жой биноларидаги газ плиталар — икки йилда бир марта;

бошқа газдан фойдаланиш ускуналарини — буюртма асосида бир йилда бир марта газ таъминоти ташкилоти ёки тегишли ваколатга эга бўлган ташкилотларни жалб қилган ҳолда техник тафтишдан ўтказилишини таъминлаш;

фавқулодда вазият ва авария ҳолатларида, куннинг исталган вақтида ўз хизмат гувоҳномаларини кўрсатган ваколатли ходимларини газ сизиб чиқиш ҳолатини текшириш учун барча ертўлалар, техник йўлақлар, хоналарга киришини таъминлаш;

белгиланган тартибда дудбуронлар ва шамоллатиш тизимларининг ҳолатини ўз вақтида текширилишини ташкил қилиш;

дудбуронлар ва шамоллатиш тизимларидаги носозликлар тўғрисида табиий газда ишлайдиган иситиш жиҳозлари ҳамда дудбуронларни кўриқдан ўтказиш хизматларида носозликларни тўзатиш учун зудлик билан хабар бериш ва хавфсизлигини таъминлаш учун зарур чораларни кўриш;

газ таъминоти ташкилотини газ таъми-

нотини вақтинча тўхтатиш мақсадида турар жойларнинг бузилиши ва (ёки) қурилиши ҳақида ёзма ёки электрон шаклда хабардор қилиш;

табиий газдан оқилонга фойдаланиш, табиий газдан фойдаланишда сертификатланган газдан фойдаланиш ускуналарини ўрнатиш, уларни хавфсизлик автоматика тизимлари билан жиҳозлаш;

фойдаланилган табиий газ ва газдан фойдаланиш ускунаси ҳамда уй ичи газ тармоқларига хизмат кўрсатиш доирасида бажарилган ишлар учун газ таъминоти ташкилоти билан белгиланган хизмат кўрсатиш тарифлари бўйича ўз вақтида ҳисоб-китобларни амалга ошириш;

газдан фойдаланиш ускунасини тоза сақлаш, овқат тайёрлаш жараёнида газ ёндиргичларни ифлосланишдан сақлаш;

ертўла, йўлак, ҳовли, кўчада табиий газ ҳиди сезилган тақдирда, авария хизматида «104» ёки «112» телефони орқали хабар бериш;

газ билан тўлган (тўпланиб қолган) жойлардан одамларни олиб чиқиш, электр ёритиш тизимларини ёниб ёки ўчиб қолиши, очиқ олов ёки ўчқун пайдо бўлишининг олдини олиш бўйича амалий чоралар кўриш;

газ таъминоти ташкилоти ваколатли ходимларига соат 08:00 дан 20:00 гача ҳисоблагичларни кўздан кечириш, ички газ тармоқлари ва газдан фойдаланиш ускуналарига техник ҳамда профилактика хизматларини кўрсатиш учун қаршиликсиз киришини таъминлаш;

ҳисоблагичлар кўрсаткичларини ўзгартириш мақсадида уларнинг ишлашига тўсқинлик қилувчи ҳаракатларни амалга оширмаслик, уларга қасддан шикаст етказишнинг олдини олиш ва ўрнатилган пломбаларнинг бутунлигини таъминлаш;

одамлар ухлайдиган ва дам оладиган хоналарда очик оловда ишлайдиган газдан фойдаланиш ускуналаридан (табиий газда ишлайдиган иситиш жиҳозлари, қозонлари) фойдаланмаслик, бундай ускуналарни газлаштириш лойиҳаси асосида ўрнатиш, одамлар ухлайдиган ва дам оладиган хоналарни иситиш тизимларида фақатгина сув иситиш қозонларидан фойдаланишни таъминлаш.

У.СОБИРОВ,

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Саноат, радиация ва ядро хавфсизлиги қўмитаси, Фарғона ҳудудий бошқармаси бошлиғи.

Ш.ҚОДИРОВ,

«Ҳудудгаз Фарғона» газ таъминоти филиали «Фарғонашаҳаргаз» газ таъминоти бўлими ХТ ва ММ етакчи муҳандиси.

ОЛОВ ТИЛСИЗ ЁВ

Ёнғин содир бўлиши, ундан кейин у ўздан мудхиш из қолдиради : фуқаролар ёки давлат мулки куйиб кул бўлади, инсонлар тан жароҳати олади, кўп миқдорда моддий зарар кўрилади. Ёнғиннинг келиб чиқиши сабаби ўрганилганда биринчи галда ёнғин хавфсизлиги қоидаларига амал қилинмаганлиги, электр ёки газда ишловчи жиҳоз ва ускуналарини ёки қолдириш, ёш болаларни назоратсиз қолганлиги айтилади. Демак, бундай салий ҳодисаларни олдини олиш учун нима қилиш керак ? Аждодларимиз айтганидек, касални даволашдан кўра уни олдини олган яхши.

Бу борада вилоят ИИБ Ёнғин хавфсизлиги бошқармаси ва унинг қўйи тизимлари ходимлари томонидан кўплаб ишлар амалга оширилди. Жумладан: содир бўлаётган ёнғинларнинг асосий қисми фуқаролар яшаш уйларида бўлаётганлигини ҳисобга олиб, вилоят ҳудудидagi аҳоли яшаш уйлари ва кўп қавтли уйларида яшовчи фуқаролар хонаданларининг ёнғин хавфсизлиги ҳолати ўрганилиб чиқилди. Фуқаролар билан ёнғин хавфсизлиги қоидалари бўйича суҳбатлар ўтказилди. Қишлоқ ва маҳалла фуқаролар йиғинларида, мактаб, боғча ва корхона ташкилотларда, даволаш муоасаларида у ердаги фаоллар билан биргаликда фуқаролар билан йиғилишлар ва тушунтириш ишлари олиб борилди. Ундан ташқари аҳоли кўп йиғиладиган масканларга ёнғинларни олдини олишни тарғиб этувчи эслатма ва плакатлар тарқатилди. Телевидение ва газеталарда бу борада кўрсатув ва мақолалар бериб борилмоқда. Шунга қарамай жорий йилнинг шу давригача вилоятимиз ҳудудда жуда кўплаб ёнғин ҳодисаси рўйхатга олинди. Бу ёнғинлар тўғрисида фуқаролар куйиб тан жароҳати олган, фуқаролар ушбу офат тўғрисида ҳаётдан эрта кўз юмди.

С.ИБРОХИМОВ,

«Фарғонаазот АЖ» ОБХТТЕБ инспектори лейтенант.

ШИФОХОНАДА «ХОН АТЛАС» ХАФТАЛИГИ УТКАЗИЛДИ



Фарғона шаҳар тиббиёт бирлашмаси тасарруфидаги даволаш профилактика муассаларида «Хон Атлас» ҳафталиги ўтказилиши режалаштирилганлиги тўғрисида Фарғона шаҳар болалар шифохонасида ҳам миллий либосимизга халқимизнинг минг асрлик ўтмиши, урф-одат ва анъаналарини, ўзига ҳос хусусиятларини мужассамлаштирган тадбирлар ташкилланди.

Ҳафта давомида шифохона бош врач Х.Ибрагимов бошчилигида шифохона хотин-қизлар кўмитаси ва касаб уюшмаси фаоллари иштирокида неврология, рентген-диагностика, физиотерапия маъмурият, катта ёшли кўкрак ёшли, анестезиология ва реанимация, лаборатория бўлимлари фаол ташаббус кўрсатиб миллий адрас ва атлас либосларда, ироқи дўппиларда ишга келиш ва кетишда кийиниш маданиятига янгича ўслуб ва ва тамойилларни киритишни тарғиб

қилишди.

«Миллий либослар ва миллий кадрларимиз, ўзбек аёлларининг жамиятдаги ва оиладаги ўрни» мавзусида ташкилланган тадбирда сўзга чиққан бош шифокор ушбу йўналишда қатнашаётган фаол аёлларга ташаккур билдирди ва ўзбек миллий шох матолари –атлас ва адрасни тайёрлаш технологияси YUNESKO томонидан маданий меросни муҳофаза қилиш бўйича илғор тажриба рўйхатига киритилганини таъкидлаб ўтди. Шифохонамизда кўп сонли аёллар ишлашини инobatга олиб ёш авлодда миллий ғурур ҳиссини уйғотиш, кадрларимизга хурматни кучайтириш, эстетик қарашларни шакллантиришимиз зарурлиги тўғрисида алоҳида тўхталиб ўтди.

Гулнорахон РЎЗИЕВА,
Фарғона шаҳар болалар шифохонаси бош
ҳамшираси.

«МАФТУНАЛАР АТЛАС КЎЙЛАК КИЙИБ ЮРСА»

ТАТУ Фарғона филиалида «Хон атласлар»-ҳафталиги челленджи бўлиб ўтди ва унда барча аёл-қизлар иштирок этди. Олийгоҳнинг ҳар бир бўлимлари ўзларининг фото лавҳалари намойиш этилди. Ғолиблар аниқланиб, эсдалик совғалар билан тақдирландилар.

Биз миллий кийимларимиз билан бутун дунёни забт эта оламиз. Марғилон хон атласларини яратган ҳунармандларимиз ҳам ва ўзбеклар Ўзбекистон фарзанди эканлигидан фахрланамиз. Миллий кийимларимиз абадий бўлсин.

Ўзалларга қўшиб берса ўзал ҳаё,
Турфа либослардан ўзни тийиб юрса.



Жилосига неча юрт бўлган маҳлиё,
Мафтуналар атлас кўйлак кийиб юрса.

Зухраҳон РАХИМОВА,
ТАТУ ФФ муҳаррири.

KUZ-QISH MAVSUMI YAQIN

Hurmatli fuqarolar! Farg'ona shahar Favqulodda vaziyatlar bo'limi korxonalar, tashkilot, muassasa va aholi yashash xonadonlarida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlar, yong'inlar, gaz havo aralashmasining chaqnashi va is gazidan zaharlanish bilan bog'liq baxtsiz holatlarni oldini olish maqsadida ogohlantiradi:

- Nosoz elektr va gaz jihozlaridan foydalanmang, bir vaqtning o'zida bir elektr manbaiga bir nechta elektr jihozlarini ulamang, elektr manbaiga ulangan jihozlarni nazoratsiz qoldirmang;
- Gaz va elektr jihozlarini o'z vaqtida mutaxassislar tomonidan texnik ko'rikdan o'tkazing;
- Yosh bolalarni olov bilan o'ynashiga yo'l qo'ymang va ularni nazoratsiz qoldirmang;
- Ish joylarida ish vaqti tugagandan so'ng barcha elektr jihozlarini (yong'in va qo'riqlash signalizatsiyasi, avariya va navbatchi yoritish tizimi, texnologik jarayon talabiga binoan tunu-kun ishlovchi elektr uskunalaridan tashqari) elektr manбайдan uzib qo'yishni unutmang;
- Xonada gaz xidini sezsangiz chiroqni yoqmag, agarda yoniq bo'lsa o'chirmang, uchqun chiqaruvchi moslamalardan foydalanmang, darhol xonani shamollatish choralari ko'ring;
- Gaz plitasidan xonani isitish maqsadida foydalanmang;

Yong'in sodir bo'lganda "101" raqamiga xabar bering.
Unutmang! Yuqoridagi kabi bir qarashda oddiy tuyulgan xavfsizlik qoidalariga rioya etmaslik, oxir-oqibat insonlarni turli darajada tan jarohati olishi, eng achinarlisi, bevaqt hayotdan ko'z yumishiga sabab bo'lishi muqarrardir!
Xavfsizligingiz o'z qo'lingizda.

A.RAYIMOV,
Farg'ona shahar Favqulodda vaziyatlar bo'limi
Profilaktika va nazorat bo'linmasi
kichik inspektori 1-darajali serjant.

“ФАРҒОНА КЕЛИНИ”

“Фарғона келини” романида IX асрда араб халифалигида бўлиб ўтган воқеалар, ижтимоий-маиший турмуш манзаралари кенг кўламда тасвир этилади. Воқеалар 221 (мелодий 826) йили Фарғона аҳлининг янги йилни кўтиб олишга қизгин ҳозирлик кўраётгани, шаҳар бинолари ва табиат манзаралари тасвирини баён қилиш билан бошланади. Сўнгра “марзубон”, яъни ҳоким Таҳмознинг катта юрак, ўткир ақли соҳиб-жамол қизи Жаҳон ва шижоатли, ботир ва ўктам йигит Зирғом ўртасидаги оташ муҳаббат тасвирлари баёни роман воқеалари марказига кўчирилади. Умуман олганда, роман воқеалари ривожда Зирғом ва Жаҳон, Ҳаммод ва Ёқута (Шаҳризод), арманистонлик катта руҳоний Вардон билан Аммурийлик юнон қизи Ҳайлона орасидаги муҳаббат тасвирлари, уларнинг мураккаб кечмиш тақдирлари, турли-туман саргузаштлари тафсилотлари ёрқин саҳифаларни ташкил этади.

Халифа Муътасим, Ардабилдаги давлат бошлиғи, арабларга қарши машҳур хуррабийлар қўзғолони раҳнамоси Бобак ал-Хуррабий, Ушрусана подшоҳи ва халифанинг лашкарбоши Афшин Ҳайдар ибн Ковус, қозикалон Аҳмад ибн Абу Дуод образлари воситасида адиб давр ижтимоий-сиёсий воқеалари, қаҳрамонлар қалбидаги туғёнли кечинмалар, турфа дунёқарашлар, ҳаётини интилишларни драматик тўқнашувлар жараёнида юксак санъаткорлик билан ёритиб беради. Воқеалар талотўпида хийлагар, ҳасадгўй, маккор, қора юрак, ўзидан бошқаларга ҳеч нарсаи раво кўрмайдиган Сомон (Жаҳоннинг ўғай акаси); Жаҳоннинг оқсочи, сирдоши ва маҳрами Ҳайзурон; Бағдодда Ҳорун ар-Рашид саройидаги чўрилардан бири, тақдир жафокаши, Зирғомнинг онаси Офтоб тимсоллари, улар бошидан кечирган сирли кечмишлар ҳам ёрқин эсда қолади.

Озод Шарафиддинов биз ёдга олган мақоласида яна шундай ёздади:

“Жаҳон адабиёти дурдоналари деб аталган асарлар – агар улар чинакам санъат намуналари бўлса, икки минг йил аввалги антик даврнинг мевасими ёки адабиёт ва санъат ривожланган XIX асрда яратилганми фарқи йўқ, сира эскирмайди. Жозибасини



йўқотмайди ва ўқиган одамга фойда келтиришдан тўхтамайди”.

Дунё кезиб юрган ва китобхонлар севиб мутолаа қилиб келаётган, буюк ўзбек адиби Абдулла Қодирийга “Ўткан кунлар” ҳамда “Меҳробдан чаён”дек ўлмас асарлар яратишда чексиз илҳом бахш этган “Фарғона келини” ҳам чинакам санъат намунаси сифатида асл жозибасини асарлар оша сақлаб келмоқда ва китобхонлар маънавий оламини бойитишда, фойда келтиришда давом этмоқда.

“Фарғона келини” романини дунё китобхонлари ҳамон севиб мутолаа қилмоқда. Ишончимиз комилки, “ШАРҚ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси мазкур серияда яна талай китобхон дунёқарашини кенгайтирадиган, маънавий-руҳий оламини бойитадиган, тафаккурини чархлайдиган ганжина асарларни чоп этиб, юртимиздаги барча маърифатли китобхонларни хурсанд қилишда давом этади.

Оқилжон ҒОФУРОВ, ёзувчи.
Ойгулхон АБДУЛЛАЕВА,
Аҳмад Фарғоний номидаги вилоят
Ахборот-кўтубхона маркази умумий
ўқув зали сектор мудири.

ҚЎТИР КАСАЛЛИГИ

Қўтир-юқумли паразитар, асосан, кечаси кучаядиган тери қичиниши билан кечадагидан касаллик. Касалликни қўтир каналари Sarcptes hominis чиқаради. Касаллик юқумли бўлиб, бемор ёки унинг буюмлари-орқали юқади.

Клиник белигилари. Соғ терига кана тушгандан кейин 7-14 кун ўтгач, бемор терида қаттиқ қичиниш ва тошмаларга эътибор беради. Бемор терисида майда пуфакчасимон тугунчалар ва эгри-бугри, қўлранг, узунлиги 5-10 мм келадиган чиқиқлар(қўтир йўллари) ва қора нуқталар кўриниб туради. Қўтир йўлининг учи очик, (майда эрозия), охири ёпиқ бўлиб, у ерларда пуфакчалар (тугунча) бўлиб, улар доим жуфт жойлашадилар (эрозия-тугунча). Одатда бу жойларга каналар жойлашган бўлади. Қўл панжаси устки бўғимлари, бармоқ оралари, қўлтиқнинг олди, аёлларда кўкрак учи терисида жуфт-жуфт жойлашган пуфакча(тугунча) ва эрозиялар учрайди. Қичиниш, айниқса, кечаси зўрайиб, қашиниш оқибатида терида тирналишлар келиб чиқиб, иккиламчи инфекцияга йўл очилади. Кечқурун зўрайадиган қичиниш,

қўтир йўллари, эрозия ва пуфакчасимон тугунчаларнинг ўзига хос жойлашиши, каналар топилиши, касалликка тўғри ташхис қўйишга ёрдам беради.

Қўтир касаллигини олдини олиш ва профилактикаси. Қўтир касаллигини олдини олиш, асосан, аҳолининг моддий фаровонлиги ва санитария маданиятини оширишга қаратилган чара-тадбирлар ишлаб чиқиш ва уни ҳаётга тадбиқ этишдан иборат. Шахсий гигиенага риоя қилиш, чойшаб, ички кийим, ўрин-кўрпа жилдларини ҳар ҳафтада алмаштириб туриш, ювилган кийимларни дазмоллаб кийиш, бировларнинг ўрнида ётмаслик, оиладан четга ва тасодифан жинсий алоқа қилмаслик.

Касаллик аниқланганда, албатта, дерматовенеролог маслаҳатига риоя қилиш зарур.

Аброр АХРОРОВ,
РИДВваКИАТМ ФФ диспансер бўлим
мудири.

Muassis: Farg'ona shahar hokimligi	Bosh muharrir: Azizbek SOYIBNAZAROV	Manzilimiz: Farg'ona shahar, Nurafshon ko'chasi, 15. Telefon (73)243-91-64	Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi. Original maket asosida «Poligraf-press» MCHJ bosmaxonasida ofset usulida chop etildi. Bosmaxona manzili: Marg'ilon shahar, Turkiston ko'chasi, 236-uy. Adadi: 520 nusxa. Buyurtma raqami
Gazeta: O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi Farg'ona viloyati hududiy boshqarmasi tomonidan 2007-yil 9-yanvar kuni 12-003 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi - 7503. Rasmiy veb-saytimiz: fargonatongi.uz			Ushbu songa mas'ut: N.Masharipova. Bosishga topshirish vaqti 17-00. Topshirildi: 17-00. Bahosi erkin narxda.
			Sahifalovchi: Nargiza Masharipova.

